



BADIIY NUTQDA STLISTIK GRADUONIMYANI NAMOYON BO'LISHI

Obidova Gulmira Kuzibaevna

TATU Farg'ona filiali, Xorijiy tillar kafedrası mudiri,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti,
Ingliz tili kafedrası, katta o'qituvchi, PhD

Maxkamova Mavludaxon Anvarjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili)
yo'nalishi, 2-bosqich magistranti
m.maxkamova1998@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 06-May 2023 yil

Nashr qilindi: 11-May 2023 yil

KEY WORDS

*obraz, uslub, ko'chim, trop, badiiy
til, stilistika, poetika leksikograf,
lug'at kartotekasi, til material.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada biz badiiy nutqda stlistik
graduonimyani namoyon bo'lishi xususida o'z
fikrlarimizni bayon qilamiz va tahlillarni amalga
oshiramiz.*

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «uslub», «ko'chim (trop)», «badiiy til», «stilistika», «poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetikaga daxldor tushunchalardir.

V.P.Grigorevning ta'kidlashicha, badiiy til keng qamrovli ob'ekt sifatida funksional darajalangan qismlarga, fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega. Amalda keng qamrovli ob'ektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko'rinadiki, badiiy nutq badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o'z ichiga oladi.

Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko'rinishi, bir fragmenti hisoblanadi. Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetika ham til sistemasi barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi.

Sistem tilshunoslikning o'zbek tilshunosligida ham alohida yo'nalish sifatida qaror topishi til tizimida paradigmatic (o'xshashlik), sintagmatic (qo'shnichilik) va ierarxik (pog'onaviylik) munosabatlari, ularning ko'rinishlarini, xususan, pog'onaviy munosabatning bir ko'rinishi bo'lgan darajalanish xarakteridagi lug'aviy guruhlarini o'rganishga ham qiziqish uyg'otdi. Keyingi yillarda graduonimyaning voqelanishi yuzasidan anchagina ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu hodisa tilning turli sathlarida voqelanishi Sh.Rahmatullaev, H.Ne'matov, R.Rasulov, O. Bozorov, Sh.Orifjonova, R.Safarova, N.Vohidova, J.Jumabaeva va boshqa qator olimlarning

tadqiqot ob'ekti bo'lib, ularning ishlarida darajalanish turli aspektlarda o'rganilgan. Sh.Orifjonova graduonimiyaning lug'aviy darajalanishini, O.Bozorov lisoniy darajalanish lingvistik qonuniyat ekanligini ilmiy asoslab berdi.

Tilshunoslikka sistem tilshunoslik tamoyillari tatbiq qilina boshlanishi bilan sistem leksikologiya shakllanib taraqqiy eta boshladi. Bu esa o'z navbatida leksik-semantik paradigmalarning yangi qirralari ochilishiga zamin yaratdi. Natijada, leksik-semantik guruhlar tarkibida graduonimiya, giponimiya, xolonimiya, taksonomiya kabi birliklar paydo bo'ldi. "Graduonimiya (gr. gradatio – "ko'tarilish", "o'sish", onymo – "nom")". Tilshunoslikda so'z ma'nolari darajasining ma'nosi, bo'yog'i, miqdori, hajmi jihatidan kuchayishi yoki kamayishi jarayonlarini tadqiq qiluvchi soha. Graduonimiya hodisasini aniqlashda belgi (hodisa) miqdorining ma'lum bir yo'nalishda ozayishi yoki ko'payishi bosh mezon hisoblanadi. Darajalanishning falsafiy asoslari va undagi shakllanish ko'lamini shuni ko'rsatadiki, bu hodisa tillarning tiplari orasidagi bog'lanishlarda va umuman tilning barcha sathlari, ularning birliklari, umumiy va xususiy tizimlarda o'z ifodasini topadi.³

Graduonimiya asrlar davomida tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, leksik-semantik munosabatlar tarkibiga kiruvchi graduonimiya hodisasi dastlab sinonimiya hodisasi tarkibida o'rganilgan. Yunon faylasuf olimi Platonning «Kratil» asarida mazkur masalaga Suqrot bilan munozara tarzida javob izlanganligini ko'rish mumkin. Qadimgi Yunon tilshunosligining falsafiy davrida faylasuflar notiqlikka alohida urg'u berdilar. Binobarin, notiqlikka bevosita xizmat qiladigan stilistika va sinonimiyaga oid ishlarni miloddan avvalgi VI-V asrdayoq yunon tilshunosligida juda ko'plab uchratish mumkin edi. Xususan, miloddan avvalgi V asrda sinonimlar nazariyasini ishlab chiqqan Prodik omonim va sinonimlarni yaxshi bilish notiq va shoirlar uchun muhim ekanini qayd etgan edi. Ushbu ma'lumotlar tadqiqotimizning qadimgi rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot beradi. Graduonimiya masalalari haqida XV asrda yashab ijod qilgan buyuk mutaffakkir Mir Alisher Navoiy hazratlari o'zining "Muhokamat ul- lug'atayn" asarida aniq dalillar keltirib o'tganligini alohida qayd qilishimiz lozim. "Buyuk mutafakkir o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari kengligini dalillash jarayonida yig'lamoq fe'lining va boshqa so'zlarning sinonimlarini tahlil qiladi, forstojik tili so'zlari bilan qiyoslaydi. Bu holat darajalanish hodisasi ijod ahllarining ham e'tiborini tortganligidan dalolat beradi.

Graduonimik qatorlar tilning barcha sathlarida:

a) fonetika va fonologiyada : yuqori, o'rta, quyi ko'tarilishi (i,e, a,u,o',o kabi), tor,o'rta,keng unlilar (i,u-a,o kabi), til oldi (t,d), til o'rta (y), til orqa (k,g), chuqur til orqa (q,g'), bo'g'iz (h) undoshlari kabi.

b) Leksika, semasiologiya ham tilshunoslikning bir sathiy ob'ekti sifatida so'z va uning ma'nosiga xos xususiyatlarni tizim sifatida o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

"Graduonimik qatorlarni ajratishda ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator so'zlardagi atash-nomlash semalari tarkibida miqdorga ma'lum bir belgining oz-ko'pligi, turli xil darajalariga ishora mavjud.Chunonchi, darcha-eshik-darvoza voqeliklarini anglatuvchi darcha-eshikdarvoza so'zlari ma'nolarining "O'zbek tilining izohli lug'ati" da izohlanishini qiyoslaylik:

1. Darcha – ilgari deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tabaqali eshik. Eshik yoki devorga o'rnatilgan kichik eshikcha yoki deraza.

2. Eshik – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishiga o'rnatilgan ochib yopib turiladigan moslama.

3. Darvoza – hovli, qo'rg'on, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochibyopiladigan katta eshik, qopqa.

Umuman, badiiy matnda til tizimidagi graduonimik munosabatlarni chuqurroq o'rganish, darajalanuvchi birliklarni va bular asosida shakllangan farqlanuvchi ma'nolarni belgilash tilning fonetik, leksik, grammatik sohalarini yanada mukammalroq o'rganishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. Toshkent. Tafakkur bo'stoni. 2018.
2. Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. док дисс. автореф – Тошкент, 1994.
3. Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016.
4. Усмонов С.. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
5. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996.
6. Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари: Филол. фан. фалс.док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2022.
7. Гальперин И.Р. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1971.
8. Vahobova, D., & Mirzayeva, D. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA" OVQAT" SEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI. Академические исследования в современной науке, 2(1), 60-66.
9. Mirzayeva, D., & Sanginova, D. (2022). ZAMONAVIY INGLIZ VA O 'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING KONTEKSTUAL MA'NOSI VA TARJIMA MASALALARINING XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1(B6), 820-824.
10. Abdullayeva, N. A., & Mirzayeva, D. I. (2022). ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATALLARNING QO'LLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 64-69.